

O‘ZBEKISTONDA KORPORATIV HUQUQ VA BOSHQARUVNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ibrohim Saidov

Toshkent davlat yuridik universiteti, Tadbirkorlik huquqi va korporativ huquq
sho‘basi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda korporativ huquq va korporativ boshqaruvning shakllanishi hamda rivojlanish tendensiyalari huquqiy transplantatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Muallif sovet huquqiy merosidan bozor munosabatlariga asoslangan xususiy huquq tizimiga o‘tish jarayonida xorijiy huquqiy institutlarning milliy huquqiy muhitga moslashtirilishi bilan bog‘liq muammolarga e‘tibor qaratadi. Maqolada Fuqarolik kodeksi hamda “Mas‘uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunning shakllanish jarayoni, korporativ munosabatlarning tarixiy bosqichlari va ularning amaliy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, korporativ boshqaruv organlari vakolatlari, fidutsiar majburiyatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, axborot berish majburiyati hamda javobgarlik mexanizmlaridagi tizimli kamchiliklar tahlil qilinadi. Xulosa sifatida korporativ boshqaruv institutlarini samarali rivojlantirish uchun xorijiy modellarni mexanik ko‘chirish emas, balki ularni milliy biznes muhiti, huquqiy madaniyat va sud amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish zarurligi asoslantiriladi.

Kalit so‘zlar: korporativ huquq, korporativ boshqaruv, huquqiy transplantatsiya, fidutsiar majburiyatlar, direktor javobgarligi, manfaatlar to‘qnashuvi, mas‘uliyati cheklangan jamiyat.

1. Korporativ boshqaruv transplantatsiyasi va muammolari

Sovet Ittifoqining parchalanishi uning tarkibida bo'lgan davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham huquqiy munosabatlarda tub burilishlarga sabab bo'ldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sovetcha huquqiy tizimdan voz kechib, erkin bozor munosabatlarini ta'minlovchi yangicha huquqiy tizimga o'tish zaruriyati paydo bo'ldi. Bunday o'zgarish uchun eng maqbul yo'l sifatida rivojlangan Yevropa davlatlarining fuqarolik huquqiy tizimlarini "*o'zlashtirish*" yoki "*huquqiy transplantatsiya*" yo'li tanlandi. Bunga asosiy sabab esa, sovet davridagi kommunistik va sotsialistik huquqiy tizim yangi bozor munosabatlariga umuman tog'ri kelmasligi va mavjud ijtimoiy-iqtisodiy institutlarning ushbu munosabatlarga mos ravishda tadrijiy rivojlanmaganligi bo'ldi. Natijada, O'zbekiston huquqiy tizimdan yangi bir huquqiy tizimga "*sakrash*" yo'li bilan o'tishga majbur bo'ldi.[1]

Shuni ta'kidlash kerakki, huquqiy transplantatsiya jarayonida faqatgina huquq normalarining mosligi emas, balki ularning muhitga moslashuvchanligi ham muhim hisoblanadi. Xususan, transplantatsiya qilinayotgan huquqiy institutlar mamlakatning iqtisodiy sharoiti, siyosiy tizimi, hamda ijtimoiy qadriyatlari bilan uyg'unlashishi lozim. Aks holda, chetdan olingan normalar amaliyotda samarali ishlamasligi va formallikka aylanib qolishi mumkin.

Biroq, post-sovet davlati sifatida mustaqillikka erishgan O'zbekiston uchun davlat institutlari va boshqaruv tizimlarini sovetcha modeldan butunlay voz kechib, yangicha yondashuvga o'tishi darhol ro'y berishi mumkin emas edi. Sababi, sovet davrida shakllangan institutsional tuzilmalar, jamiyat va davlat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, yuritilayotgan boshqaruv uslubi, shuningdek, huquqiy tafakkur bunga tayyor emas edi.[2]

Natijada, mazkur o‘tish davri iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida sobiq sovetcha yondashuv, ya’ni ishchilarga yo‘naltirilgan iqtisodiy model, yangi tizimga singib ketishga harakat qilgan bo‘lsada, bozor iqtisodiyotining shakllanishida kommunistik iqtisodiy merosning izlari sezilib turar edi.[3]

Shuni ta’kidlash kerakki, huquqiy tizimni isloh qilishda nafaqat qonun normalarini qabul qilish, balki jamiyatning mentaliteti, tarixiy ijtimoiy tajribasi va ijtimoiy va ma’muriy institutlarning yangi o‘zgarishlarga tayyorligi ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotimiz davomida shu narsaga amin bo‘ldikki, O‘zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishda faqat tashqi institutlar va xorijiy modellarning shakliy joriy qilinishi yetarli emas. Aksincha, har qanday xorijiy tajribani qo‘llashdan avval, mahalliy biznes muhitining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy va huquqiy holatlar chuqur o‘rganilishi zarur. Faqat shu asosda xorijiy tajriba real ehtiyoj va shart-sharoitlarga moslashtirilgan holda qo‘llanishi mumkin.

Shu sababli tadqiqotimizda korporativ boshqaruvdagi yuqorida qayd etilgan muammolarning tub ildizini aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda “Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinish jarayonini chuqur o‘rgandik. Bu borada Oliy Majlis arxividagi stenogrammlar, qonun loyihalari bo‘yicha ishchi guruh bayonnomalari va ekspert xulosalari keng miqyosda tahlil qilindi.

Mazkur o‘rganishlar davomida, Sovet Ittifoqi qulaganidan so‘ng mustaqillikka erishgan post-sovet davlatlarida bozor va mulkchilik munosabatlariga asoslangan xususiy huquq tizimini shakllantirish bo‘yicha olib borilgan ishlar doirasida **Respublikalararo xususiy huquqni tadqiq qilish ilmiy markazi** muhim rol o‘ynaganligi ma’lum bo‘ldi.[4] Aynan ushbu markaz hamkorligi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining konseptual

asoslarini ishlab chiqishda akademik **Hojiakbar Rahmonqulov** boshchiligidagi ekspertlar guruhi Niderlandiya va Germaniya davlatlarida xizmat safarida bo‘lib, ushbu mamlakatlarning fuqarolik qonunchilik tajribasini chuqur tahlil qilganlar.[5]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yangi fuqarolik kodeksi loyihasini ishlab chiqishda **Germaniya** fuqarolik qonunchiligi (BGB – Bürgerliches Gesetzbuch) va **Niderlandiyaning** yangi fuqarolik kodeksi (NBW – Nieuw Burgerlijk Wetboek) asosiy manbalar sifatida o‘rganilgan va ulardan O‘zbekiston huquqiy tizimiga moslashtirish asosida foydalanilgan. Bu esa, O‘zbekiston fuqarolik huquqining bugungi rivojlanishida Yevropa kontinental huquq tizimi prinsiplari asosiy g‘oyaviy va tizimli manba bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Mazkur jarayon huquqiy modernizatsiya yo‘lidagi muhim bosqich bo‘lib, milliy qonunchilikni yaratishda xorijiy ilg‘or tajribani tanqidiy tahlil asosida qabul qilish amaliyotining namunasidir. Bu bilan mustaqil O‘zbekiston o‘zining milliy huquqiy tizimini shakllantirishda modern huquqiy institutlar va yondashuvlarni inobatga olgan holda, huquqiy islohotlarni xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirishga intilganini ko‘rish mumkin.

Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar qonunchiligining O‘zbekiston huquqiy tizimiga ko‘chirilishi (*huquqiy transplantatsiya*) jarayonida mavjud ijtimoiy munosabatlar, huquqiy madaniyat va mahalliy biznes muhitining o‘ziga xos xususiyatlari yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Huquqiy transplantatsiya faqat tashqi institutlar va huquqiy mexanizmlarni shaklan olib kirish bilan cheklangan bo‘lib, ularni mahalliy muhitga moslashtirish va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha tizimli yondashuv yetishmagan.

Xususan, fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o‘rtasida halollik, oqillik (vijdonlilik) va adolat tamoyillari qonunchilikda nazarda tutilgan bo‘lsa-da,[6] milliy huquq tizimida ularning ishlashini ta‘minlovchi nazariy-huquqiy asoslari, doktrinalari, prinsiplari o‘rganilmaganligi amalda ushbu

tamoyillarni ta'sirchan ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Bunday prinsipial asoslarning amaliyotga to'laqonli tatbiq etilmasligi esa korporativ boshqaruvda manfaatlar to'qnashuvi, bevosita javobgarlikni chetlab o'tish, axborot berish majburiyatining buzilishi kabi holatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratmoqda.

Bundan tashqari, ushbu qonun hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida xalqaro tajriba asosida joriy qilinayotgan institutlar jamoatchilik, fuqarolik jamiyati vakillari va parlament deputatlari o'rtasida keng va mazmunli muhokamalarga sabab bo'lmagan. Natijada, qabul qilingan normativ hujjatlar ko'p hollarda ijtimoiy va iqtisodiy real ehtiyojlardan ko'ra huquqiy shaklni to'ldirish zarurati asosida qabul qilingan, deyish mumkin. Chunonchi, akademik H.Rahmonqulovning fikricha, "biror bir turdagi munosabat huquqiy munosabatlar xarakteriga ega bo'lishi uchun u odamlarning ongi va erk-irodasi ta'siridan o'tgan bo'lishi kerak"[7]

Bu holat esa, o'z navbatida, milliy huquqiy tizimning institutsional asoslari bilan huquqiy transplantatsiya qilinayotgan institutlar o'rtasida muvofiqlik yetishmasligiga olib kelgan. Shu sababli, xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv institutlari ko'plab hollarda amaliyotda samarali ishlamayapti va faqat tashqi shakldagi institutlar darajasida qolib ketmoqda.

Bundan tashqari, mazkur tamoyillarni milliy huquq tizimiga integratsiya qilish taklifi ko'plab deputatlar hamda amaliyotchi olimlar tomonidan salbiy baholangan. Ularning fikricha, fuqarolik munosabatlarida bu tamoyillarga ortiqcha tayanish sud vakolatlarini haddan tashqari kengaytirib yuborishi mumkin, milliy sudlar esa bunday kengayishga tayyor emas. Natijada tamoyillarning qo'llanilishi huquqni keng talqin etish va ayrim holatlarda suiiste'mol qilish xavfini oshirishi ehtimoldan holi emas.[8]

2. O‘zbekistonda korporativ munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari

Ayrim olimlar O‘zbekiston hududida korporativ huquqiy munosabatlarning kurtaklari XIX asr oxirlarida Buxoro va Xiva xonliklari davrida paydo bo‘lganligini ta’kidlashadi.[9] Xususan, H.Rahmonqulov va S.S.G‘ulyamovlar korporatsiyalar O‘zbekiston hududida XIX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan so‘ng shakllana boshlaganini ta’kidlaydilar.[10]

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda korporatsiyalar shakllanishining dastlabki kurtaklari sovet davrida kuzatilgan bo‘lsa-da, ushbu davrdagi korporativ tuzilmalar zamonaviy mazmundagi korporativ prinsiplar – xususan, cheklangan javobgarlik, mustaqil yuridik shaxs maqomi va kapitalga asoslangan boshqaruv tizimini to‘liq o‘zida mujassam etmagan. Aksincha, sovet davridagi iqtisodiy birliklar, jumladan, sanoat korxonalar, kolxoz va sovxozlar, davlat mulkchiligiga asoslangan bo‘lib, ko‘proq jamoaviy va markazlashtirilgan manfaatlarni ifodalagan, hamda ular ustidan davlat nazorati va boshqaruvi mutlaq ustuvor bo‘lgan.

Bunday tuzilmalar, garchi tashqi jihatdan tashkilot shaklida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, ular bozor mexanizmlariga asoslangan raqobatbardosh subyektlar emas edi. Mulk egaligi va boshqaruv huquqi ajralmagan, ishtirokchilarning yuridik mas’uliyati va mustaqil tashabbusi deyarli mavjud bo‘lmagan.

Shu bois, haqiqiy bozor munosabatlariga asoslangan korporativ tuzilmalar, cheklangan javobgarlik instituti va yuridik shaxs sifatidagi kompaniyalarning shakllanishi va rivojlanishi mustaqillikdan keyingi davrda, xususan 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshgan.[11] Aynan ana shu

davrda xususiy mulk, erkin tadbirkorlik, va korporativ boshqaruv elementlariga asoslangan kompaniyalar huquqiy asosda ro‘yobga chiqa boshladi.

Shu nuqtai nazardan Professor J.Yuldashev O‘zbekiston Respublikasida korporativ munosabatlarni shakllanishini shartli ravishda uch bosqichga bo‘ladi. Olim birinchi davrni korporativ munosabatlarning *tarqoq normativ hujjatlar bilan tartibga solingan davr* (1990-1996 yillar oralig‘i) deb ifodalab, unda Sobiq ittifoqda qayta qurish va xususiy mulkka bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi oqibatida korporativ munosabat, korporativ boshqaruvga asoslangan yuridik shaxs turlarini tashkil etish borasida dastlabki normativ hujjatlar qabul qilina boshlanganligini ta’kidlaydi. Xususan, Respublikamiz musutaqillikka erishganidan so‘ng “Korxonalar to‘g‘risida”[12], “Xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari to‘g‘risida”[13], “Tadbirkorlik to‘g‘risida”[14] va bir qancha boshqa qonunlari tarqoq shaklda bo‘lib, o‘sha davr ijtimoiy munosabatlariga mos bo‘lgan.

Ikkinchi bosqich sifatida esa, *kodifikatsiyalashgan fuqarolik qonunchiligi* va unga muvofiq qabul qilingan normativ hujjatlar bilan tartibga solingan ikkinchi davr (1996-2016 yillar oralig‘i) hisoblanadi. Bu davrni turli sohalardagi iqtisodiy islohotlar, huquqiy tizimdagi o‘zgarishlar va xalqaro standartlarga moslashish davri desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu bosqichda ko‘plab fuqarolik qonun hujjatlari Fuqarolik kodeksiga moslashtirilib, fuqarolik qonunchilik bazasi yuzaga keldi.

Professor N.Imomovning fikricha, fuqarolik kodeksida tijorat tashkilotlarining to‘liq ro‘yxatini belgilash bozor munosabatlariga o‘tish davrida tarixan zarur qaror bo‘lgan.[15] Xususan, ushbu davrda xususiy mulkchilik shakllarining kengayib borishi va iqtisodiyotda xususiy sektor rolini oshirishga qaratilgan islohotlar korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruratini kun tartibiga olib chiqqan. Masalan, o‘sha vaqtda amalda bo‘lgan “Xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonun, umumiy

jihatdan, yuridik shaxslar shakllarini belgilab bergan bo‘lsa-da, unda yangi ishtirokchilarni jamiyat tarkibiga qabul qilish tartibi, shuningdek, boshqaruv organlarining (umumiy yig‘ilish, direktor va kuzatuv kengashi) aniq vakolatlari hamda ularning huquq va majburiyatlari to‘liq yoritilmagan edi. [16]

Shu sababli, korporativ munosabatlar tizimi real iqtisodiy munosabatlarda faol shakllana boshlagani sari, bu sohada mustaqil, ixtisoslashgan va mukammal tartibga solishni nazarda tutuvchi huquqiy asos yaratish zaruriyati vujudga keldi. Natijada, aynan ana shu huquqiy va iqtisodiy ehtiyojlardan kelib chiqib, 2001-yilda “Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.[17]

Uchinchi bosqich sifatida *raqamli iqtisodiyot, shaffoflik, korporativ munosabatlardagi integratsiya va liberallashtirishni o‘z ichiga olgan uchinchi davr* (2016 yildan hozirgi davrgacha) hisoblanadi. Ushbu davrda davlat ulushi mavjud bo‘lgan ko‘plab korxonalar xususiylashtirildi. Ushbu kompaniyalarda zamonaviy korporativ boshqaruv modellari joriy etildi.[18]

Biroq amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan institutsional islohotlarga qaramay, O‘zbekistonda korporativ boshqaruv tizimi hanuzgacha bir qator chuqur ildiz otgan tizimli muammolardan xoli emas. Eng avvalo, korporativ boshqaruv organlari o‘rtasidagi vakolatlar chegarasining aniq belgilanmaganligi amaliyotda sezilarli murakkabliklarga olib kelmoqda. Masalan, boshqaruvchi organlarning fidutsiar majburiyatlari (ya’ni halollik, vijdonlilik va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish majburiyatlari) va ularning huquqiy javobgarlik chegaralari yetarlicha aniq va tizimli tartibda belgilab qo‘yilmaganligi amalda qarorlar qabul qilinishi jarayonida mas’uliyatsizlik, manfaatlar to‘qnashuvi va institutsional javobgarlik mexanizmlarining zaifligiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, fidutsiar majburiyatlar institutini qonunchilikka kiritish jarayoni uzoq muddatli kechikishlarga uchragan bo‘lsa-da, oxirgi

o'zgarishlar islohotlarning amalga oshishi uchun ishonchli asos yaratmoqda. 2022-yilda Prezident qarori bilan boshlangan islohotlar[19], 2023-yilda qonun loyihasining jamoaviy muhokamaga qo'yilishi[20] va nihoyat 2025-yil aprel oyida Oliy Majlis tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilinishi[21], ushbu muhim huquqiy bo'shliqning yaqin kelajakda to'ldirilishi istiqbolini ko'rsatadi.

Biroq, qonun loyihasining qabul qilinishi faqat birinchi qadam hisoblanadi. Endi asosiy e'tibor nafaqat uning amaliy jihatlariga, balki – fidutsiar majburiyatlarning aniq talqini, korporativ munosabatlar ishtirokchilari bo'lgan direktor va ulushdorlar tomonidan ushbu majburiyatlarni tushunishi, sudlarning ushbu majburiyatlar doirasini aniqlay olishi va ular buzilgan hollarda javobgarlikni qo'llay olishi bilan bog'liq bo'lgan bir nechta konsepsual muammolarni bartaraf etishga ham qaratilishi lozim deb hisoblaymiz. Chunki, ushbu majburiyatlar uning ishtirokchilari tomonidan tushunilmasa, his qilinmasa, qonunning amaliy ta'siri cheklangan bo'lib qoladi.

Biz ushbu dissertatsiya doirasida direktorning majburiyatlari doirasini tahlil qilar ekanmiz, o'z oldimizga nafaqat amaliy muammolar, balki, konsepsual ya'ni tushunish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni ham o'rganishni maqsad qildik. Ushbu konsepsual muammolar dissertatsiyaning uchinchi bobida batafsil yoritiladi. Zotan, konsepsual muammolarni o'rganish, dissertatsiya doirasidagi eng asosiy amaliy yechim bo'lgan direktorning fidutsiar majburiyatlar institutini milliy huquq tizimizga samarali joriy etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] J.Malinauskaite “ Harmonisation of EU Competition law enforcement Springer, 2020, 2-bet
- [2] Urinboyev, R., & Svensson, M. (2016). Corruption in a culture of money: Understanding social norms in post-Soviet Uzbekistan. *Social and Legal Norms* (pp. 267–284). Routledge.
- [3] R.Urinboyev “The Political Economy of Central Asian Law” 2023, 24-bet.
- [4] Законодательная история части первой ГК РФ (1991–1994 гг.) Собрание материалов 24 декабря 2019 г.
- [5] M.Umaraliyev. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 6.12.2001 yildagi VII sessiyasi stenografiyasi.
- [6] Fuqarolik kodeksining 5,9-moddalari
- [7] Раҳмонқулов Ҳ.Р. Фуқаролик ҳуқуқи муаммолари. – Т.: ТДЮИ, 2010. – Б. 60.
- [8] Проект (июль 1993 г.) Гражданский Кодекс Российской Федерации (with some remarks by Ger. P. van den Berg) Leiden, 5 november 1993. 7888 bet
- [9] Зокиров И.Б. Становление и развитие Советского гражданского права в БНСР и ХНСР. – Т.:Фан,1988. – 95с.
- [10] Раҳмонқулов Ҳ.Р., Гулямов С.С. Корпоратив ҳуқуқ. – Т.: ТДЮИ, 2007. – 55 с.
- [11] Юлдашев Ж. Акциядорлик жамиятларининг фуқаролик ҳуқуқий мақоми. – Т.: ТДЮУ, 2022. – Б. 13.
- [12] О‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.02.1991 yildagi 229-XII-son
- [13] О‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.1992 yildagi 732-XII-son
- [14] О‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.02.1991yildagi 207-XII-son
- [15] Имомов Н. Юридик шахсларни турларга бўлишнинг танқидий таҳлили.//Yuridik fanlar axborotnomasi Вестник юридических наук-Review of Law Sciences. 1 (2017) 68-74.
- [16] M.Umaraliyev. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 6.12.2001 yildagi VII sessiyasi stenografiyasi.
- [17] Ushbu qonunni qabul qilish jarayonidagi stenografriya o‘rganilganda deputatlar o‘rtasida muhokamalarda faqatgina qonunagi ishtirokchilarga qo‘yilgan

cheklov masalasi muhokama qilingan. Boshqa masalalar deputatlar nazaridan chetga qolgan.

[18] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-yanvardagi “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4933-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/3098864>

[19] “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.11.2022 yildagi PQ-415-son

[20] “Xo‘jalik jamiyatlarining ijro organi, kuzatuv kengashi hamda majoritar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) mas’uliyatini oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi, ID-90058, <https://regulation.gov.uz/uz/d/90058>

[21] Xakimov Raxim Rasuljonovich, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari, https://t.me/rahimjon_hakimov/699